

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Tong Yulduzi



2013-yil
21-yanvar
N:3
(66908)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

O'TMISHI QADIM, KELAJAGI NURLI DIYOR



ALISHER NAVOIY



O. ORIPOV / koltaji

Navoiy viloyatiga
bag'ishlangan
MAXSUS SON

An'anamizga ko'ra, respublikamiz viloyatlariga bag'ishlangan maxsus sonlarimizning navbatdgisini tayyorlash maqsadida buyuk mutaffakir bobomiz Alisher Navoiyning 'qutlug' nomi bilan atalgan Navoiy viloyati sari otlandik. Maroqli va mazmunli safar taassurotlarini o'quvchilarimiz bilan o'rtoqlashishdan avval, ularga bu ko'hna va navqiron viloyat haqida qisqacha ma'lumot berishni joiz topdik.

(Davomi 2-betda)

(Boshi 1-betda)

O'TMISHI QADIM, KELAJAGI NURLI DIYOR

Navoiy viloyati Yurtboshimiz tashabbusi bilan mustaqillikning ilk davrida – 1992-yilning boshida qayta tashkil etildi. Garchi navqiron viloyat bo'lsa-da, uning insoniyat tamadduniga katta hissa qo'shgan boy va qadimiy tarixi bor.

Navoiy mamlakatimizda hududiy jihatdan Qoraqalpog'istondan keyingi ikkinchi o'rinda turuvchi eng katta viloyat bo'lib, umumiy hududi 110,99 ming kv. km.ni tashkil etadi. Aholisi 877,3 mingdan ziyod. Tarkibida 8 ta – Xatirchi, Qiziltepa, Karmana, Navbahor, Nurota, Konimex, Uchquduq, Tomdi qishloq tumanlari bor. Ulardan tashqari ikkita yirik – Navoiy va Zarafshon shaharlari ham mavjud.



Mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini yuksaltirishda muhim o'rin tutadigan, yer osti va yer usti tabiiy boyliklarining nihoyatda mo'lligi bilan ham alohida ahamiyatga ega bo'lgan bu viloyat bugungi kunda har tomonlama rivojlangan, ko'rkam va obod hududga aylandi. Bepoyon Qizilqum bag'rida Mendeleyev jadvalidagi deyarli barcha elementlar uchraydi. Bejizga Yurtboshimiz Navoiyga «O'zbekistonning oltin sandig'i» deya ta'rif bermaganlar. Bu zaminda oltin qazib olish respublika sanoatining yetakchi sohalaridan sanaladi.

Viloyat o'ziga xos tabiiy sharoitiga ko'ra uch qismga bo'linadi: uning shimoli-g'arbiy qismini bag'rida ne-ne sinoatlarni yashirib yotgan Qizilqum



cho'li egallagan. Janubi-sharqiy qismida Nurota tog' tizmalariga tegishli Qoratog', Oqtog' singari tog'lar bo'y cho'zgan. Zarafshon daryosi vohasining o'rta qismida viloyatning dehqonchilik zonasi o'rnashgan. Asosiy suv manbai Zarafshon daryosi hisoblanadi.

bitilgan qoyatosh suratlari «Ochiq osmon ostidagi muzey» sifatida dunyoga mashhur.

Viloyat markazi so'lim va ozoda Navoiy shahri bo'lib, 2008-yilda u o'zining yarim asrlik to'yini keng miqyosda nishonladi.



Ochiq osmon ostidagi muzey qoyatoshining ustki ko'rinishi.

Viloyatning cho'llari, dasht-u dalalarida ming turli hayvonot-u hashoratlar yashaydi. Bu zaminda yovvoyi hayvonlar, kemiruvchilar, sudralib yuruvchilar, sut emizuvchilarning kamyob turlari uchraydi.

Ajdodlarimiz tomonidan miloddan avvalgi VII, milodiy III asrlarda Sarmishsoy, Qoraungursoy, Bironsoy daralari



Mehriniso PARDAYEVA, Navoiy viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i

ISTE'DOD-U ZEHNINGIZGA TAN BERSIN JAHON!

Istiqlol tufayli mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlod tarbiyasiga ustuvor vazifa sifatida qaralayotgani barchamizni quvontiradi.

Bu kabi xayrli ishlarni amalga oshirish navoiyliklarning ham muqaddas burchiga aylandi. Bugun viloyatning qay bir go'shasiga bormang, yosh avlodning chuqur bilim olishi, iqtidor va salohiyatini to'la namoyon etishi uchun bunyod etilgan ta'lim maskanlari, sport inshootlarini ko'rib, beixtiyor hayratingiz oshadi. Viloyatda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ibratli ishlar xususida Boshqarma boshlig'i bizga quyidagilarni to'lqinlanib so'zлади:

Navoiy viloyati hudud jihatdan respublikamizda ikkinchi o'rinda turadi. Shu sabab aholi yashash joylari, demakki, ta'lim muassasalari ham juda tarqoq joylashgan. Ayrim maktablarimiz tuman markazidan 200 km, viloyat markazidan esa 500 kilometr-dan ham uzoqda ekanligi bizni o'z ishimizga yanada

mas'uliyat bilan yondashishni talab etadi.

Viloyatimizning bilimdon, salohiyatli o'quvchilari «Bilimlar bellashuvi»da yuqori natijalarni ko'lga kiritib kelishmoqda.

O'quvchilarning iste'dod va iqtidorlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan turli ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalarida erishayotgan



Bugungi kunda viloyatda 359 ta umumta'lim maktabi, 114 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 10 ta Bolalar musiqa va san'at maktabi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularda 126817 nafar o'quvchi besh tilda – o'zbek, rus, tojik, qozoq va qoraqalpoq tillarida ta'lim-tarbiya olmoqda. 11 ta «Barkamol avlod» bolalar markazlarida 36 turda jami 152 ta to'garaklar tashkil etilgan.

yutuqlari ham salmoqli bo'lmoqda. Jumladan, 2010-yilda Nurota tumanidagi 45-maktab o'quvchisi Chaman Jonuzoqova, 2012-yilda Zarafshon shahridagi 13-maktab o'quvchisi Mohinur Qahramonovlarning Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lishlari, «Umid nihollari – 2012» sport musobaqalarining respublika bosqichida viloyatimiz yoshlarining umumjamoa

hisobida faxrli 2-o'rinni egallashgani, yosh sportchilarimizning o'tgan 2012-yil davomida xalqaro, respublika miqyosidagi musobaqalarda 58 ta oltin, 53 ta kumush, 80 ta bronza medallarini qo'lga kiritishgani, «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali hamda «Kelajak ovozi» mega-tanlovidagi erishayotgan yutuqlari ko'hna va navqiron hududimizda ijodkor yoshlarning safi

yildan yilga kengayib borayotganini ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, iste'dodli, qobiliyatli yoshlarimizni ma'naviy qo'llab-quvvatlashda, erishayotgan yutuqlarini targ'ib qilishda ommaviy axborot vositalarining ham o'ziga xos o'rni bor. Bu borada, ayniqsa, bolalar va o'smirlarning sevimli nashri bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasi alohida e'tirof etishni istardim.

Fursatdan foydalanib, viloyatimiz, qolaversa, respublikamizdagi barcha o'quvchi-yoshlarga qarata, iste'dod-u zehningizga tan bersin jahon, degim keladi.

O'z muxbirimiz



Gazetamizning har bir sonida yurtimizning barcha go'shalarida kurtak otayotgan iste'dodlar haqida yozar ekanmiz, ko'nglimiz yayraydi. Bu safar navoiylik lo'bar qizlar, ularning erishayotgan yutuqlari, quvonchlari-yu, hayajonlarini sizga ilindik. Ajab emas, ular haqida o'qib, sizda ham, men bugun qanday ibratli ishlar qilmoqdaman, nimalarga erisha oldim, degan savol tug'ilsa-yu, javobingizdan barchamizning ko'nglimiz to'lsa! Zero, diyorimizning har bir o'g'il-qizi yaxshilardan ibrat olishini istaymiz.

MUSTAQILLIK INSHOOTLARI

Yurtimizda bayramlar ko'p. Ana shunday bayramlarni munosib nishonlash uchun betakror andazaga ega, zamnaviylikni o'zida mujassam etgan amfiteatr viloyat ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda.



Istiqlolimizning 21 yilligi arafasida yosh sportsevarlarning quvonchi yanada cheksiz bo'ldi. Sababi, Navoiy shahrida maydoni qariyb o'n besh gektarni tashkil etgan «Yoshlar» sport majmuasi foydalanishga topshirildi.



Gazeta-jurnallar, nashriyot va matbaa bo'limi jamlangan «Matbuot uyi» navoiylik ijodkorlarning eng sevimli maskaniga aylanib ulgurdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.



O'g'il-qizlarning sevimli maskanlaridan biriga aylangan «Yoshlar saroyi» bugungi kunda viloyatning chekka tuman va shaharlaridan kelayotgan iste'dodli yoshlarni birlashtirmoqda.



«Akvapark» nafaqat mazkur viloyat, balki qo'shni viloyatlar bolalari uchun ham chinakam Istiqlol tuhfasidir.

BU – ISTIQLOL TUHFASI

– Qizalog'im, qo'lingdagi shu mitti kitob iste'doding mevasi, Mustaqilligimizning senga bergan tuhfasidir ekanligini bilasanmi? – dedilar buvim qo'llariga «Istiqlol dilbandiman» nomli ilk to'plamimni olar ekanlar.

– Bizning zamonda, ayniqsa, chekka qishloqlardagi o'quvchilarning iqtidori maktabdan tashqarida bo'y ko'rsata olmas edi. Istiqlolga erishgach, barkamol avlod tarbiyasiga katta e'tibor qaratilib, sizlar uchun barcha sharoitlar yaratilayotgan ekan, Vatanimizga munosib farzand bo'linglar...

Buvimning to'lqinlanib aytgan so'zlaridan quvonib, g'ayratim jo'shdi. Bundan keyin ham o'qish va izlanishdan aslo charchamay, buvijonim, qolaversa, xalqimning ishonchini oqlashga va'da beraman. O'zim boshlovchilik qilayotgan «Nurota» televideniyaqidagi «Bilim-ring» ko'rsatuvining keyingi sonini «Bu – Istiqlol tuhfasidir» mavzusida tayyorlashni dilimga tugdim.

Zarina ASHUROVA,
Nurota tumanidagi 54-maktab o'quvchisi

NURLI OSMON BIZNIKI

Ilk she'riy to'plamim shunday nomlangani bejiz emas. Chindan-da Vatanimizning buguni, nurli kelajagi biz yoshlarniki.

Ilk she'rim tumanimizning «Xatirchi hayoti» gazetasi sahifalarida chop etilganida rosa sevingan edim. So'ngra sevimli nashrim «Tong yulduzi»da e'lon qilingan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovida 2-o'rinni qo'lga kiritdim. Bu yutug'im viloyatimizda o'tkazilgan «Eng yaxshi yosh jurnalist» tanlovida 2-o'rinni egallashimga turki bo'ldi.

O'tgan yili «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida ona tili va adabiyot fanidan 1-o'rinni egallab, ustozlarim ishonchini oqladim. Endilikda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lish uchun astoydil intilyapman.

Zilola G'AYBULLAYEVA,
Xatirchi tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchisi

Gazetamizning eng faol o'quvchilari orasida Nilufar Mardonova ham borki, biz bugungi maxsus sonimizda muxlisimiz haqida ikki og'iz so'z aytishni lozim topdik. U yakunlangan yilda gazetamizda e'lon qilingan «Oilada yaxshilik yashasa...» tanlovining birinchi o'rin sohibasi bo'lgan edi. Fursatdan foydalanib, muxlisimizning o'qishlarida muvaffaqiyatlar tilab, g'oliblik muborak, deymiz!

ORZU TOMON INTILSAK...

Bolaligimdan o'q «Assalom, O'zbekiston!» ko'rsatuvini boshlovchilariga havas qilaman. Orzuga intilsang, unga erishish qiyin emasligi rost ekan. Bugun viloyatimizdagi «Fazo» televideniyaqidagi turli ko'rsatuvlarida boshlovchilik qilib kelmoqdaman. Bunday yutuqlarga erishishimda shahrimizda qad rostlagan «Yoshlar» markazida viloyat «Kamalak» bolalar tashkiloti sardorlari tashabbusi bilan tashkil etilgan «Fidoyi

yoshlar» klubi hamda ustozlarim Feruza opa O'ktamova, Shiringul opa Asayeva, Dildora opa Kattayevaning xizmatlari katta.

Ijod namunalarimni tengdoshlarim hukmiga havola qilishimga imkon yaratib berayotgan «Tong yulduzi» gazetasi esa yurtimiz yoshlari yuragida o'chmas yulduz bo'lib qolishini istayman.

Nilufar MARDONOVA,
Karmana tumanidagi 13-maktab o'quvchisi

DUNYOGA TANILGAN MAKTAB



Navoiy maktablarida bir-biridan ibratli, e'tiborga molik ishlar amalga oshirilayotgani haqida hikoya qilsak, havasingiz kelishi aniq. Buning isbotini birgina Zarafshon shahridagi 1-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi misolida o'qib ko'ring-a! Gapni mazkur bilim dargohi haqida Fransiyada chop etiladigan jurnalalardan birida maqola tayyorlanganidan boshlaymi yoki bir necha xalqaro, nufuzli tanlovlarda qo'lga kiritayotgan yutuqlaridanmi? Xullas...

«Xalq ta'limi a'lochisi» nishondori Dilbar opa To'xtayeva rahbarlik qilayotgan bu maktab 1996-yildan buyon YUNESKO bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 2009-yilda respublikamizda «Eng yaxshi ixtisoslashtirilgan maktab» ko'rik-tanlovida 2-o'rinni egallagan. Maskanning Italiyada o'tkazilgan «Mondiologo» tanlovida g'oliblar safida turib, xalqaro simpoziumda ishtirok etgani tahsinga sazovor. Ushbu tanlovda qatnashgan ingliz tili o'qituvchisi Sufya opa Dehqonova bir yil o'tib, Finlyandiyaning Yonseu shahrida 25 ta mamlakat

ishtirokidagi xalqaro konferensiyada o'quvchisi Ikrom Umarov bilan «Atrof-muhit – tarmoqda» tanlovida ham g'oliblikni qo'lga kiritgan. «Ekologik muammolarni yechishda eng faol maktab» medali bilan taqdirlangan. Maktabning iqtidorli, intiluvchan o'quvchilaridan Angelina Bikova, Marina Shumayeva, Yelina Pashaxayevalar xuddi shu davlatda bo'lib o'tgan «Buyuk ipak yo'li: O'zbekistonning qadimgi shaharlari» Forumida ham g'oliblar safidan o'rin egallab qaytishgan ekan.

YUNESKONing Birlashgan maktablar dasturiga kiritilgan

maktablar o'rtasida o'tkazilgan Xalqaro innovatsion loyihalar tanlovida O'zbekistondan ikkita maktab g'olib topilgan. Ulardan biri, albatta, mazkur ta'lim dargohidir.

Sanayversak sahifalarimiz yetmaydigan muvaffaqiyatlarning so'ngi yilda erishilgani bilan so'zimizni muxtasar qilsak. Maktabning yana bir jonkuyar, fidoyi o'qituvchisi Nadejda Petrunkoning o'quvchilari

Anjelika Ergasheva va Ulug'bek Faxriddinov ekologiyaga oid xalqaro insholar tanlovida g'olib bo'lib, o'tgan yili Buyuk Britaniyada o'tkazilgan taqdirlash marosimida ishtirok etishdi.

Ushbu maktab haqida o'qib, qani endi barchamiz o'z maktabimizni ana shunday dunyoga tanitsak, deya havas qilayotgan bo'lsangiz, ajab emas! Bu juda yaxshi! Chunki barcha ezguliklarning debochasi havasdir!

TO'MARISLAR ULG'AYSA, DEYMIZ

Kichkintoylar juda qiziquvchan bo'lishadi. Ular doimo nega unday, nega bunday, deya kattalarni savollarga tutishgani tutishgan.

Navoiy shahridagi «To'maris» nomli bolalar bog'chasi tarbiyachisi Gulnoza ZARIPOVA o'z kasbini, bolalarni chin dildan sevuvchi pedagoglardan biri. Bolalar bilan o'tadigan nutq o'stirish, matematika, tasviriy faoliyatga o'rgatish mashg'ulotlarida o'g'il-qizlarning bilimini oshirishga o'zining bor bilimini va tajribasini sarflaydi. Bolalar tomonidan berilgan har bir savolga atroflicha, batafsil javob qaytarishga harakat qiladi. Guruhdagi tarbiyalanuvchilar unga: «Opajon, nega bog'chamiz «To'maris» deb nomlangan? To'maris o'zi kim?» degan savolni juda ko'p berishadi. Tarbiyachilar o'zaro maslahatlashib, jajjilarga mard va jasur ayol, massagetlar malikasi To'marisning olamshumul jasorati haqida to'liqroq ma'lumot berish maqsadida, «Jajji To'maris» deb nomlangan bayram kechasini o'tkazishga qaror qildilar.

Bog'chaning musiqa zali chiroyli bezatilgan. Musiqa rahbari Lilya Zubairova sho'x tarona sadosi ostida davraga jajji bolajonlarni chorladi. Kichkintoylar tomonidan ijro etilgan ajoyib raqs tadbirining debochasi bo'ldi. So'ngra sahnaga kirib kelgan Farishta bolajonlarga massagetlar malikasi – dono To'maris haqidagi afsonani aytib berdi. Shu tariqa bolajonlar To'marisdek jasur ayolni, qahramonni o'zlari uchun kashf etishdi.

Rivoyat qahramonlari roli tarbiyachilar tomonidan ijro etildi. Jumladan, To'maris siymosini Nasiba Jo'raqulova yaratgan bo'lsa, boshqa qahramonlar obrazlarini tajribali tarbiyachilar Gulnoza Jo'rayeva, Gulbahor Sanaqulova, Lola Quدراتova, Taxmina O'rmonova ijro etishdi. Rivoyatni tinglagan bolajonlar Farishta sinovidan o'tish uchun o'z iste'dodlarini namoyon etishlari

lozim edi. Qarangki, ular bu sinovdan muvaffaqiyatli o'tishdi. Raqsga tushib, «Arqon tortish», «Kim chaqqon?» kabi harakatli o'yinlar o'ynab, kuch sinashdilar. Davlatimiz ramzlari bo'lgan bayroq va gerbimizdagi tasvirlarga va ular anglatadigan ma'nolarga ta'rif berib, tadbir mehmoni bo'lgan tinchlik qushi – Humoning savollariga javob berishdi.

Tadbirda «Qushcha» guruhining jajji tarbiyalanuvchilaridan Mashhura, Sabina, Nilufar, Sarvar, Javohir, Sabrina, Dovud, Kamola, Samira kabi o'g'il-qizlar faol ishtirok etishdi.

Bolajonlar tarbiyachi opalarining mahoratli ijrolari tufayli To'marisning mardligi, jasur va oqilaligi, xalqi, millati uchun ko'rsatgan qahramonliklari haqida ko'plab ma'lumotga ega bo'ldilar.

Dilrom HOTAMOVA

KUY SEHRI



Ijodiy safarimiz davomida fan, ta'lim, sport, san'at, qo'yingchi, barcha sohalarida yutuqlarga erishgan ko'plab o'quvchilar bilan tanishdik. Navoiy shahridagi 2-sonli umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi Muhammadjon Xidirov ana shunday iqtidorli o'quvchilardan biri. San'at yo'lidagi ilk qadamlarini dadil tashlayotgan Muhammadjonning fortepyano-da chalgan kuylarini tinglab, hayratimizni yashirolmadik.

Farzandidagi mustiqqa bo'lgan havasni payqagan Bobosher aka va Nargiza opa

uni shahardagi 1-sonli musiqa maktabiga berishdi. Ustozi Jamila opa Zafarovaning musiqa sirlarini qunt bilan o'rganayotgan shogirdidan umidi katta. Hozirdan sahnalarda o'zini erkin tutib, bor iqtidorini namoyish etishga harakat qilayotgan Muhammadjon katta yutuqlarga erishishiga ishonadi.

RASMLAR KO'RGAZMASI



Akbar OZODOV

Ijod ahli borki, qalbi go'zal va samimiy tuyg'ularga esh bo'ladi. Shoir so'zlar aro «dur-u javohirlar», qiyosiy iboralar, betakror tashbehtar izlasa, kulol bir hovuch tuproqqa «jon» ato etib, mo'jizalar yaratadi. Bastakor dillarga orom bag'ishlovchi kuyi bilan ko'ngilning nozik torlarini chertsa, musavvir ta'rifi so'z o'z o'z zallikni turfa xil bo'yoqlar vositasida tasvirlaydi.

Bugun ana shu betakror go'zallikni pok qalbi, beg'ubor nigohi bilan ilg'ashga intilayotgan, bolalikdan oq tasviriy san'atga mehr qo'yib, uning sirli, sinoatli olamida o'ziga munosib o'rin izlayotgan havasmand tengdoshlarining ijod namunalardan ko'rgazma qilishga chog'landik.

Navbahor tumanidagi 14-maktab o'quvchisi Akbar Ozodov ana shunday iqtidorli yoshlardan biri. O'zining mo'yxalam tasvirlari bilan bir necha tanlovlar g'olibi bo'lishga ham ulgurgan Akbarjon qo'lga kiritgan yutuqlarining bosh sababchisi deb eng avvalo tog'asi va ustozini biladi. Chunki aynan shu insonlar uning noyob qobiliyatini o'z vaqtida payqab, to'g'ri yo'nalish bergan ekanlar.

Shuningdek, Uchquduq tumanidagi 20-maktabning 7-sinf o'quvchisi Gavhar Safarova, Navoiy shahridagi 15-maktabning 4-sinf o'quvchisi Muslimbek Saidov, Navbahor tumanidagi 5-maktab o'quvchisi Nodira Norahmedova, Nurota tumanidagi 2-maktabning 7-sinf o'quvchisi Umida O'ralova, Uchquduq shahridagi 7-maktab o'quvchisi Gulshoda Bo'riyeva, Karmana tumanidagi 9-maktabning 3-sinf o'quvchisi Aziz Boboyev, Navoiy shahridagi 17-maktabning 5-sinf o'quvchisi Sevinch Murtazoyeva kabi iqtidor egalarining chizgan rasmlari ham diqqatimizni tortdi.

Quyidagi suratlarni Siz ham diqqat-e'tiboringizni jamlab, tomosha qiling. Ular asosida ertak yoki hikoya yozishga urinib ko'ring va albatta, bizga yuboring.




Gavhar SAFAROVA




Muslimbek SAIDOV



Nodira NORAHMEDOVA



Pokiza SHOMURODOVA



Gulshoda BO'RIYEVA

«FAOL» o'quvchi

Sarlavhani o'qib, faol so'zining qo'shtirnoqqa olinganidan ajablanayotgandirsiz. Nurota tumanidagi 36-maktabning 3-sinf o'quvchisi Mehridin Berdiqulovning bizga yozib yuborgan hikoyasini o'qisangiz, sababini bilib olasiz.

Men sizlarga har gal eslaganimda kulgim keladigan bir voqeani so'zlab bermoqchiman. 1-sinfga yangi qadam qo'ygan kunlarimiz edi. Ertalab barvaqt turishni, darsga borishni sira yoqitmas edim. Onam uyg'otib ketganlaridan keyin ham, yana birpas uxlay, deb yotaverardim.

Har kuni darsga kechikib kelaverganim uchun ustozlarimning ham toqati toq bo'ldi chog'i, bir kuni sinfdoshlarim oldida meni rosa izza qilishdi...

– Endi hech qachon kechikmayman! – deya so'z berdim o'zimga o'zim. – Qanday tartibli, intizomli o'quvchi ekanligimni bir ko'rib qo'yishsin!..

Ertasi kuni hammadan barvaqt uyg'onib, nonushta ham qilmasdan maktabga otlandim. Barvaqt borib, sinf xonamizdagi gullarga suv quyaman, yozuv taxtasini artib, darsga tayyor qilib qo'yaman...

Shunday o'y-xayollar bilan maktabga yetay deb qolibman-u, atrofda hech kim ko'rinnmaydi. Bugun sinf bo'yichagina emas, balki maktab bo'yicha hammadan birinchi kelayapman chog'i, deya xursand bo'lib,



shoshilib darvozadan ichkari kirdim. Maktab hovlisidagi gullarni sug'orib yurgan qorovulning menga ajablanib qarashidan yanada g'ururlanib ketdim. Ichkariga kirsam, har kuni g'ala-g'ovur bo'ladigan yo'laklar ham, sinf xonalari ham, hatto, o'qituvchilar xonasi ham jim-jit. Tashqariga chiqib, qorovulga:

– Amaki, bugun hammadan, hatto ustozlarimizdan ham barvaqt kelibmanmi? – dedim g'ururlanib.

– Ha, shunday bo'libdi, shovvoz. Afsuski, bugun yakshanba-da, – deya kulib yubordi qorovul amaki...

Shu-shu qorovulni ko'rsam, yonidan uyaliy o'tib ketaman. Bu voqeadan so'ng hafta kunlarini yaxshilab o'rganib oldim.

MEN BOLAMNI DESAM,

bolam bolasini deydi, degan o'zbekona bir naqlni eshitganmisiz? Xo'p topib aytilgan bu hikmat zamirida bir olam ma'no mujassam. Navoiy shahridagi 17-maktab o'quvchisi Madina Murtazoyevaning yozgan hikoyasida ham shu haqda so'z boradi.

Shahodat buvi nafaqa pulini oldi-yu, to'g'ri bozorga otlandi. Kattakon sumkasini to'ldirib bozorlik qildi, nabiralari shirinliklar oldi. O'g'li Erkinjon yoqtiradigan qip-qizil olmalardan olishni ham unutmadi. Uyga qaytgach, unga peshvoz chiqqan nabiralarni birma-bir bag'riga bosib, olib kelgan narsalaridan ulashdi. Xizmat safariga ketgan o'g'li uchun ikki dona qip-qizil olma olib qo'ydi.

Shu kuni Erkinjon safardan qaytdi. Ikki yoniga egizak qizlari Fotima va Zuhrani olib, erkalatib o'tirgan o'g'liga onaxon olib qo'ygan olmalarini uzatdi. Bolaligidan olmaning aynan shunday turini xush ko'radigan Erkinjon ularni huzur qilib hidladi. So'ngra birini Fotimaga, ikkinchisini esa Zuhraga berdi-da, onasiga mamnun boqib, jilmayib qo'ydi.

– Rahmat dadajon! Lekin bu olmalar sizga, buvijonim bizga ham berdilar, – deya Erkinjonning qo'lini qaytarishdi qizaloqlar...

Shahodat buvi shunday oilaparvar o'g'li, mehribon nabiralari borligidan xursand bo'ldi.



NAVOIYDAN YANGRAGAN NAVO

Hazrat Navoiy bobomizning nomlari bilan atalgan viloyatdagi yosh she'riyat ixlosmandlarining she'rlerini saralab, xayolindan shunday o'y kechdi: bu saxovatli zaminda unib-ulg'aygan yoshlarga, albatta, bobolari ruhi yor bo'lgay. Dono xalqimizning: «Olmaning ostiga olma tushadi» degan hikmati bejiz emasligini fahmlab, aytmoqchi bo'lganimiz: she'r yozish uchun qalamini charxlagan har bir o'g'il-qiz eng avvalo, mana shu O'zbekistondan saxovatli zaminning farzandi ekanligidan faxr-iftixor tuyg'usiga to'lib, borliqqa mehr-u muhabbat yog'dularini sochishga intilsa, hech qachon kam bo'lmaydi. Navoiylik ijodkor o'quvchilarning quyidagi she'riy mashqlari barcha she'riyat shaydolari qalbini zavq-u shavqqa to'ldirishidan umidvormiz.

OY KO'ZGUSI

Ko'kdan turib boqar Oy,
Aksini ko'rsatar soy.
Go'zal Oyga soyimiz,
Ko'zgu bo'lgan hoynahoy.

Har tunda soy bo'yiga,
Kelishini qo'ymaydi.
Oy ham xuddi qizlardek,
Chiroyiga to'ymaydi.

Abduzohid JUMANAZAROV,
Nurota tumanidagi 33-maktab o'quvchisi




SIZNI SOG'INDIM

Sog'indim, qo'ydingiz ko'p sog'intirib,
Aqalli kirmaysiz tushlarimga ham.
Sog'indim, qo'ydingiz siz sog'intirib,
Qaydasiz mehribon, aziz volidam?!
Mehnat baxt keltirar, baxtli bo'lay deb,
Mehnat zavqidaman, yuribman omon.
Yaqinlar yonimda, g'amxo'r, men faqat
Sizni sog'inaman-u ko'proq, onajon.



Chiroyim ham aql-u hushim edingiz,
Oppoq kabutarday qushim edingiz,
Bugun-chi, armonim, tushim bo'ldingiz,
Sog'indim men sizni juda, onajon.
Siz yo'qsiz, go'yoki qo'llarim bog'liq,
Siz yo'qsiz kimsasiz tuyular borliq,
Sog'inchdan o'trandim, yurakda og'riq,
Sog'indim men sizni juda, onajon!
Gar sizga qo'l cho'zsam, qo'lim yetmaydi,
Siz tomon borsam gar yo'lim yetmaydi,
Bu sog'inch azobi sira ketmaydi,
Sog'indim, onajon, sizni sog'indim!

Gulchiroy EGAMBERDIYEVA,
Qiziltepa tumani Qurilish va uy-joy
kommunal xo'jaligi kasb-hunar
kolleji o'quvchisi




AXTAMQULI

QISHLOG'IM

Menga aziz qarich tuprog'ing,
Har giyohing, ilhom bulog'im.
Ta'rifingni kuylayman mudom,
Onam kabi aziz qishlog'im.

Buvim yopgan nonning isida,
Men ilg'adim, mehringni tuydim.
Unutmagin erka qizingni,
Seni axir, jonimdan suydim.

Nilufar QIYOMOVA,
Uchquduq tumanidagi
7-maktab o'quvchisi



YAQIN DO'STIM

Yaqin do'stim, dugonam,
Senga sirim ochaman.
Sen borsan – hayot go'zal,
Sensiz g'amni quchaman.

Sen ham mendek yolg'izsan,
Kel, bo'lishgin siringni.
Chiroylisan, sog'lomsan,
Qarg'ama taqdiringni.

Ko'p kuyunma, o'rtanma,
Hali shodon yurasan.
Mendek sen ham onangni,
Tushlaringda ko'rasan.

Yaqin do'stim, dugonam,
Sen opam hamda onam.
Bizni hali oldinda,
Kutmoqda nurli olam.

Natalya YEREMYEVA,
Navoiy shahridagi Mehribonlik uyi
tarbiyalanuvchisi

GULLAR, SIZNI SEVAMAN!

Go'zallikka oshno dillarning,
Qalbi guldek go'zal bo'ladi.
O'zgalarga quvonch ulashib,
Ko'ngli zavq-u shavqqa to'ladi.

Men ham gulni sevaman juda,
Gul yurtimning jamoli, ko'rki.
Quvnatadi ko'zimni boqsam,
Gulzordagi kapalak erki.

Kamola JO'RAYEVA,
Karmana tumanidagi 13-maktab
o'quvchisi



QORAVOY

Qoravoy itim mening,
Xo'p aqlli jonivor.
Sizga aytсам uning ham,
Bittagina aybi bor.

Singlimning mushugi-la,
Chiqishmaydi-da hech ham.
Ini, ovqat idishi,
Doim bo'lak bo'lsa ham.

Mayli bir kun ular ham,
Inoqlashib olishar.
Balki ular bir-birin,
To'g'ri yo'lga solishar.

Javohir HAMDAMOV,
Navbahor tumanidagi
1-maktab o'quvchisi

Yurtimizda yosh avlodga yaratib berilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlardan navoiylik tengdoshlaringiz ham unumli foydalanishmoqda. Viloyat yoshlari sport sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib, mamlakatimiz nomini jahon bo'ylab keng yoyishayotgani qalblarimizga g'urur baxsh etayotir.

YOSHLIK - SHILOAT FASLI



Navoiyga qilgan ijodiy safarimiz chog'ida viloyat gimnastika maktabida ham bo'lib, bu yerda ko'plab yosh iste'dod egalari kamolga yetayotganining guvohi bo'ldik. Ayni paytda bu mas-kanda 1000 dan ziyod yosh o'g'il-qizlar sportning badiiy

va sport gimnastikasi turi bo'yicha muntazam shug'ullanishmoqda. Malakali murabbiylarning mehnati samarasi o'laroq, o'quvchilar viloyat va respublika birinchiliklarida, qolaversa, xalqaro musobaqalarda ham munosib ishtirok etib, faxrli

o'rinlarni qo'lga kiritmoqdalar. 2012-yilda Farg'ona shahrida bo'lib o'tgan sport gimnastikasi bo'yicha «Olimpiya umidlari» Respublika musobaqasida Abror Meliboyev, Farhod Ochilov, Shohruh Tolibov kabi maktabning umidli sportchilari faxrli 1-o'ringa

sazovor bo'lganliklari fikrimiz isbotidir. O'tgan yili poytaxtimizda bo'lib o'tgan «Ko'k gumbaz» sport musobaqasida o'zbek badiiy gimnastika maktabining umidli vakillaridan biri Jamila Rahmatova 1-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, Karina Tog'aeva, Mohisetora Huse-nova, Sitora Ubaydullayeva, Hulkar Maxanqulova, Sevinch Ochilova kabi yosh sportchilar faxrli o'rinlarga sazovor bo'lishdi.

Kirib kelgan yangi – 2013-yilda ham maktab o'quvchilarini jiddiy sinovlar kutyapti. Chunki, bu yil ham respublika va xalqaro miqyosda turli nufuzli musobaqalar o'tkaziladi. Ayni paytda yosh sportchilar ana shu turnirlarga jiddiy hozirlik ko'rishmoqda.

Istiqlol yillarida Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan yurtimizning barcha viloyatlarida ko'plab zamonaviy sport inshootlari bunyod etildiki, bugun ular sportga oshno tutingan tengdoshlaringizning eng sevimli maskanlariga aylandi.

LOCHINLARNING BALAND PARVOZI

Quvonarlisi, bu kabi xayrli ishlar davom etmoqda. Xatirchi tumani-dagi 3-bolalar va o'smirlar sport maktabi hamda «Lochin» sport majmuasi ana shunday qutlug' maskanlardan biridir.

2004-yilda foydalanishga topshirilgan «Lochin» bolalar sport majmuasida ayni paytda 514 nafar yosh sportchilar sportning 6 turi bilan muntazam shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

2007-yildan boshlab sport majmuasi bazasida 3-bolalar va o'smirlar sport maktabi faoliyati yo'lga qo'yildi. Hozirda mazkur BO'SMda 700 nafar yoshlar bir qancha sport turlari bo'yicha muntazam shug'ullanishmoqda.

– Sport yoshlarimiz irodasini toblaydi, dunyoqarashini kengaytiradi. Bugungi yosh sportchilarimizda ana shunday xislatlarning bari mujassam, – deydi 3-BO'SM direktori Bo'ri Madatov.

2007–2012-yillar mobaynida

ushbu dargohda 6 nafar Respublika chempionlari, 22 nafar Respublika birinchiligi sovrindorlari, 6 nafar xalqaro miqyosdagi sport musobaqalari g'oliblari yetishib chiqdi.

– Men ham ushbu maktabda malakali murabbiylardan saboq olib, dastlab respublika, so'ngra xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etganman. Endilikda o'zim ushbu maskanda milliy kurash bo'yicha yosh sportchilarga murabbiylik qilmoqdaman, – deydi Gulhayo Parmonova.

Ta'kidlash joizki, sport bilan maqsadli shug'ullangan bola har jihatdan sog'lom bo'lib kamol topadi. Eng asosiysi, sport kelajakdagi orzu va maqsadlar sari dadil qadam tashlashga chorlovchi asosiy vositadir.

Barkamol avlodni tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgan «Lochin» bolalar sport majmuasidan yetilib chiqayotgan lochinlarning parvozi yanada baland bo'lishini tilaymiz.

Behzod DO'STQULOV,
O'zbekiston chempioni

ENG OLIY MAQSADIM...

– Bolaligidan sportga oshno tutinganim bois, maktabda a'lo baholarga o'qimoqdaman. Yurtimizdagi barcha tengdoshlarimning biror sport turi bilan jiddiy shug'ullanishini xohlayman.

Hozirda 3-bolalar va o'smirlar sport maktabida sportning milliy kurash turi bilan muntazam shug'ullanyapman. Yaqinda Samarqand shahrida milliy kurash bo'yicha o'tkazilgan Respublika birinchiligida faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdim. Eng oliy maqsadim – Rishod Sobirovdek dzjudo bo'yicha Olimpiada o'yinlari sovrindori bo'lish.

SPORT BILAN DO'STLASHSAK...

Biz, yosh avlodning kamol inson bo'lib voyaga yetishimizda sportning o'rni beqiyos ekanligini sportsevar tengdoshlarimiz juda yaxshi bilishadi. Shuning uchun ham qiyinchiliklardan cho'chimay, biror sport turi bilan muntazam shug'ullanishga intilishadi.

Sportchi yoshlarimiz orasida bugungi kunda qizlarimizning ham ko'payib borayotgani quvonarli holdir. Ularning nufuzli musobaqalardagi yutuqlari qalblarimizni faxr va iftixor tuyg'ulariga to'ldiradi.

Hamyurtlarimiz Ra'no Amonova, Yekaterina Xilko, Yuliya Tarasova singari umidli sportchilarimizning XXX yozgi Olimpiadadagi muvaffaqiyatli ishtiroklari fikrimizning dalili bo'la oladi. Vaholanki, ilk marotaba tashkillashtirilgan Olimpiada o'yinlarida ayollarning ishtiroki taqiqlab qo'yilgan ekan. Hozirgi kunda esa bu o'yinni ularning ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yurtimizning kenja va navqiron Navoiy viloyatida ham sport hayotining mazmuniga aylangan dugonalarimiz talaygina. O'zbekiston terma jamoasi safida ko'plab xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib,

yurtimiz sharafini munosib himoya qilib kelayotgan Ulyana Trofimova ana shunday qizlarimizdan biri. U besh yoshidan buyon Navoiy konmetallurgiya kombinatiga qarashli Bolalar va o'smirlar sport maktabida badiiy gimnastika bilan shug'ullana boshlagan.

Navoiy shahridagi 4-maktabda tahsil olgan Ulyana 11 yoshidan boshlab Respublika musobaqalarida, keyinchalik esa Xalqaro Gran-Pri va jahon kubogi musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok etgani uchun jahonning eng kuchli 15 sportchisi safiga kirgan.

Nafaqat tahsil olgan maktabi, tumani, viloyati, balki mamlakatimiz iftixoriga aylangan Ulyananing izdoshlari ko'payishiga tilakdoshmiz.

Zero, sport – salomatligimiz garovi, do'stlik va tinchlik elchisi.

Dilafuz XALILOVA





YANGI SPORT MAJMUASI

Yaqinda qurilib, foydalanishga topshirilgan yangi sport majmuasi uchquduqlik sportsevar bolalarni behad sevintirib yubordi.

Bu yerda yoshlarning badiiy gimnastika va dzyudo sport turlari bilan shug'ullanishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Zamon talablariga mos kiyinish va yuvinish xonalari o'g'il-qizlarning ixtiyorida ekanligi yanada quvonarli. Bunday sharoitlarda sport bilan shug'ullanish qanday yaxshi-a!

Sh. MUSAKOVA

«BEPOYON VILOYAT» AYLANMA SKANVORDI

1. Tizma tog'	2. Nurotadagi suv yo'li	3. Qardosh millat	4. Chegaradosh viloyat	5. Marmar koni
6. Qalam ashyosi, ma'dan	N	7. Mayda bargli buta	A	8. Qurilish material
9. Ovlanadigan qush	10. Zarafshon tarmog'i, kanal	11. Oltin koni	12. Mirsaid ... (maqbara)	13. Ashur-ali ... (yozuvchi)
14. Shaharcha (Uchquduq)	V	15. Beozor qush	O	16. Qizil-qum berk botig'i
17. Tarixiy shahar	18. Shirinning yori haykali	19. Oydin ... (shoira)	20. Iqtidorlilar ilm gohi	21. Ho'l meva
22. Sport turi	I	23. Chorvador maskani	Y	24. ... Malik (karvon-saroy)
25. Aqliy sport o'yini	26. Tog' mevasi	27. Mo'y-nali qo'y zoti	28. Dushan ... (shoir)	29. Mayizbop uzum.

«Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali yangi-yangi iqtidorlarni kashf etmoqda. Ular orasida navoiylik tengdoshlaringiz ham talaygina.

ISTE'DODLAR KASHFIYOTCHISI



– Biz festivalda raqs yo'nalishi bo'yicha o'z iqtidorimizni sinab ko'rdik, – deydi Zarafshon shahridagi 7-bolalar musiqa va san'at maktabidagi «Shodiyona» raqs guruhi a'zosi Umida Baxtiyorova. – Iqtidorli tengdoshlarimiz bilan tanishdik, ulardan raqs san'atining o'zimiz bilmagan qirralarini o'rgandik, bilganlarimizni o'rgatdik.

– Men o'n yoshimdan beri rasmlar chizishga qiziqaman. Tomdimning go'zal tabiatini, cho'l-adirlarini qo'y-qo'zilarini tasvirlagim kelaveradi. Festivalda tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha ishtirok etdim va bu menga olam-olam zavq berdi. Shu bilan birga hali ko'p o'rganishim, izlanishim kerakligini tushundim, – deydi Tomdi tumandagi 1-maktabning 6-sinf o'quvchisi Miyrenxon Shaprikenov.

Bugun «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalida ishtirok etishga oshiqayotgan iste'dodli o'g'il-qizlarning soni kundan kunga ortib boryapti. Chunki «Yangi avlod» chin ma'noda iqtidorlilar festivali, shu bilan birga do'stlik festivali ekanligi bugun barchaga ayon.



Maxsus sonni tayyorlashda yaqindan yordam bergan XTV Axborot xizmati boshlig'i J.Musayevga, Navoiy viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi rahbariyatiga, jumladan, axborot xizmati rahbari Abdixolil Jo'rayevga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Maxsus sonni tayyorlaganlar:

F. JALILOVA, S. TURSINOV, F. ADILOVA,
Yu. ABDULLAYEV, S. QODIROVA,
F. MATYOQUBOV, O. ORIPOV.

8

F. ORIPOV tuzdi

21-yanvar 2013



Bosh muharrir:
Feruza JALILOVA

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Quroqboy ERGASHEV,
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi:
Axtamul KARIMOV
Rassom:
Feruza MATYOQUBOV
Dizayner:
Olovuddin ORIPOV
Musahhih:
Dilorom HOTAMOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.

Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.

ISSN 2010-6092
Adadi - 85029
Buyurtma N: J 6232